



**O‘ZBEKISTONDA O‘STIRISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN TERAKLAR**

**Ochildiyev Najmiddin Narbayevich**

PhD, katta ilmiy xodim

**Farxodova Gulxayo Faxriddin qizi**

talaba

**ANNOTATSIYA**

O‘zbekistonda o‘rmonchilikni yuksaltirish uchun istiqbolli bo‘lgan terak navlarini o‘rganish va ularni boshqa navlarga taqqoslash bo‘yicha olib borilgan kuzatish ishlariga asosan respublikaning agroiklim tumanlari uchun mos keladigan terak navlari va turlarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘linib, bu terakning tuprog‘i sho‘rlanmagan va qisman sho‘r bosgan yerlarda o‘stirish uchun mos keladigan turlarini tavsiya etishda katta yordam berdi.

**Kalit so‘zlar:** Istiqbolli, terak navlari, agroiklim, tuproq, sho‘rlanmagan, qisman sho‘r bosgan, sho‘rlangan, nav, yetishtirish agrotexnikasi, vegetatsiya, harorat, havo namligi.

**АННОТАЦИЯ**

На основе проведенных наблюдений и сравнений перспективных сортов тополя для улучшения лесного хозяйства Узбекистана с другими сортами удалоc определить сорта и виды тополя, подходящие для агроклиматических регионов республики, что значительно помогло в выборе видов тополя, пригодных для выращивания на незасоленных и частично засоленных почвах.

**POPLAR VARIETIES RECOMMENDED FOR CULTIVATION IN UZBEKISTAN**

**ANNOTATION**

Based on observations and comparisons of promising poplar varieties for improving forestry in Uzbekistan with other varieties, it was possible to identify poplar varieties and species suitable for the agroclimatic regions of the republic, which significantly assisted in selecting poplar species suitable for cultivation on non-saline and partially saline soils.

**Keywords:** promising varieties, poplar varieties, agroclimate, soil, non-saline, slightly saline, saline, variety, cultivation agrotechnics, vegetation, temperature, air humidity.

O‘zbekistonning o‘rmon daraxtlari o‘stiriladigan sharoiti yetarli darajada xilma-xildir. Ular uchun xarakterli tomoni tuproq qatlami o‘ziga xos turli-tuman va iqlimi keskin o‘zgaruvchidir. O‘sishi (vegetatsiya) davrining davomiyligi, masalan Samarqand viloyatida 260 kungacha, yillik o‘rtacha harorat 15,6<sup>0</sup> ga va eng yuqori harorat 48<sup>0</sup> gacha borishi mumkin. O‘zbekistonning ayrim zonalarida masalan, Mirzachul quyilishida eng past harorat — 34<sup>0</sup> gacha pasayishi mumkin. O‘rtacha yillik yog‘in-sochinlarning eng kam miqdori (79—87 mm) Amudaryo etaklarida ro‘y berib, eng ko‘pi Chotqol chuqqisi tarmoqlariga (Toshkent viloyati) tushadi, bu yerda yoqqan yog‘in-sochinlar miqdori 1000 mm va bundan ham ko‘proqqa boradi.

Lekin havo namligi nisbatan bir xil bo‘lishi kuzatiladi. Chunonchi, respublikaning ko‘pchilik tumanlarida havoning nisbiy namligi iyul oyida 50 % dan past bo‘ladi.

Iqlim sharoiti ko‘rsatkichlariga asoslangan holda, shuningdek, O‘zbekiston uchun o‘simliklarni tumanlashtirish bo‘yicha amaldagi takliflardan foydalanib, 5 ta agroiklim tumanlarni ajratish mumkin (1-jadval).

*1-jadval*

**O‘zbekistonning agroiklim tumanlari**

Agroiqlim tumanining	Sovuq bo‘l-	Havoning harorati, °C				O‘rtacha yog‘in miqd	Havoning o‘rtac
		O‘rtacha	En	g	na		



nomi	maydigan davr, kun	Yillik	Yanvar	Iyul				
Quy Amudaryo	180-205	11,0-12,1	4,5-6,9	27,0-27,4	32,0	44,0	78-87	41-43
O'rta Sirdaryo	205-217	13,0-15,0	1,0-3,0	27,0-30,0	34,0	40,0	268-367	41-46
Farg'ona	208—218	12,8-13,8	1,3-3,5	26,3-28,0	27,0	44,0	98-226	42-48
Qashqadaryo, Zarafshon	203—235	13,4-15,1	0,0-1,0	25,9-29,6	27,0	46,0	125-328	37-42
Surxondaryo	220—260	15,6	1,1-2,0	28,4	23,0	48,0	360	39

Hamma agroiklim tumanlarning ajralib turadigan belgilari yog'in-sochinlarning kam miqdorda bo'lishi, uning ham asosan o'sish davrida tushmasligi va havoning nisbiy namligi g'oyat past bo'lishidan iboratdir. Iqlim sharoitlarining ana shu xususiyatlari terak o'stirish arealini kengaytirish imkonini kamaytiradi va uni faqat sug'oriladigan dehqonchilik tumanlarida o'stirish bilan chegaralanishni shartlab qo'yadi. Lekin V.P.Fimkin tomonidan tavsiya etilgan tipologiya bo'yicha terak o'stiriladigan sharoit 8 tipga bo'linadi. Bu esa terakni sug'orilmaydigan sharoitda o'stirish imkonini beradi. Lekin O'zbekistonda bu xildagi sharoitga ega bo'lgan yerlar unchalik ko'p emas. Bularni hamma agroiklim tumanlarida uchratish mumkin (2-jadval).

2-jadval

**Sug'ormasdan terak o'stirish mumkin bo'lgan joylar sharoiti**

Gidrologik sharoiti	Tuproqlari		
	sho'rlanishga moyil bo'z-o'tloqi, botqoq-o'tloq, qayiralyuvial va taqir tuproklar	sho'r bosmagan och tusli bo'z, tipik va to'q tusli bo'z, osti shag'al kolmatgorizont bilan 0,6—1 m va ko'p	sho'rlanmagan o'tloq va o'tloq-botqoq (dasht va bo'z tuproqlar mintaqasi)
Sezot suvlari 3-4 m dan chuqur joylashgan	A <sub>2</sub>	V <sub>1</sub>	-
Sizot suvlari 2 dan 3 m gacha chuqurlikda	A <sub>1</sub>	-	S <sub>2</sub>
Sizot suvlari 1 dan 2 m gacha chuqurlikda	A <sub>3</sub>	-	S <sub>3</sub>
Sizot suvlari 1 m gacha chuqurlikda	A <sub>4</sub>	-	S <sub>4</sub>

Eslatma: terak A<sub>3</sub> va A<sub>4</sub> tip tuproqlarda o'stiriladigan bo'lsa, sizot suvlari sathini pasaytirish bo'yicha meliorativ tadbirlar o'tkazish kerak.

O'zbekistonda o'rmonchilikni yuksaltirish uchun istiqbolli bo'lgan terak navlarini o'rganish va ularni boshqa navlarga taqqoslash bo'yicha olib borilgan kuzatish ishlariga asosan respublikaning agroiklim tumanlari uchun mos keladigan terak navlari va turlarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo'linib, bu terakning tuprog'i sho'rlanmagan va qisman sho'r bosgan yerlarda o'stirish uchun mos



keladigan turlarini tavsiya etishda katta yordam berdi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, tuprog'ini sho'r bosgan yerlarga o'tqazish uchun tavsiya etilgan terak navlari o'zining sho'rga nisbatan bardoshlilik bilan farq qiladi, lekin bu xildagi terak navlarini o'tqazish uchun ma'lum meliorativ tadbirlarni o'tkazish talab etiladi.

O'rta Osiyo o'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan kuzatish natijalariga qaraganda, terakning mahalliy kasallik va zararkunandalari (sistosporioz, parsha, zang, oq chirish va boshqalar), terak qalqandori, Zlatka, bargxur va boshqalarga qarshi kurash choralari xilma-xil bo'lib, birga o'stirilgan daraxtlarning bu xildagi kasallik va zararkunandalarga chidamliligi ham nisbatan barqaror bo'ladi.

Quyida Amudaryo agroiqlim tumani uchun, u yerda sug'oriladigan sho'r bosmagan tuproqlar deyarli yo'qligidan, terakning sho'rlanishga moyil bo'lgan yerlarda o'stirishga muljallangan turlarini o'tqazish tavsiya etiladi.

I. Terakdan asosan tanasi hisobiga qurilish materiallari olish uchun: oqterak (Bolleana formasi), qora terak (baqa terak), № 421 duragayi, Koliforniya teragi, afg'on teragi (mirza teraging turli xili);

II. Terakdan ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun: oqterak (Baxofena formasi) «Perven Uzbekistana», qora terak (baqa terak), I-214 yevroamerika teragi, I-154 yevroamerika hamda Koliforniya teraklarini o'tqazish tavsiya etiladi..

O'rta Sirdaryoning sho'rlanishga moyil bo'lgan sug'oriladigan yerlaridagi agroiqlim tumanlari uchun terakning quyidagi turlarini o'tqazish tavsiya etiladi:

I. Terakdan qurilish materiallari sifatida yog'och olish uchun - oq terak (Bolleana formasi), qora terak (baqa terak), Koliforniya teragi, michurines teragi.

II. Terakdan ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun - oq terak (Baxofena formasi), Koliforniya teragi, afg'on teragi (O'rta Osiyo qora teragi).

Farg'onaning agroiqlim tumanlarida sug'oriladigan yerlarida o'stirish uchun terakning quyidagi turlari va navlari tavsiya etiladi:

I. Terakdan qurilish materiallari sifatida yog'och olish uchun - oq terak, stremitelniy oq terak (Bolleana formasi), qora terak (baqa terak), mirza terak, Koliforniya teragi, afg'on teragi (mirza terakning turi).

II. Terakdan ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun - oq terak (Baxofena formasi), Koliforniya teragi, qora terak (afg'on teragi), I-455 yevroamerika teragi.

Zarafshon-Qashqadaryo agroiqlim tumanlarida terakning quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya etiladi (tuprog'i sho'rlangan yerlarda):

I. Terakdan qurilish materiallari sifatida yog'och olish uchun - oq terak (Bolleana formasi), Koliforniya teragi, qora terak (piramidalniy uluchshenni, afg'on teragi (mirza terakning turi).

II. Ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun - oq terak (Baxofena formasi), pervenes Uzbekistana, qora terak (I-214 yevroamerika teragi), I-154 yevroamerika teragi, Koliforniya teragi, afg'on teragi (O'rta Osiyo mirza teragi turi).

Surxondaryoning agroiqlim tumanlarida sho'rlanmagan sug'oriladigan yerlarida o'stirish uchun:

I. Terakdan qurilish materiallari sifatida yog'och olish uchun oq terak (Bolleana formasi), stremitelniy, qora terak (Piramidalniy obnovlenni) afg'on teragi (mirza teraging turi).

II. Terakdan ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun - oq terak (Baxofena formasi), pervenes Uzbekistana, qora terak, afg'on teragi (O'rta Osiyo mirza teragi), I-214 yevroamerika teragi va I-154 yevroamerika teragi.



Surxondaryo viloyat agroiklim tumanlarining sho'rlanishga moyil bo'lgan yerlarida o'stirish uchun:

I. Terakdan qurilish materiali sifatida yog'och olish uchun-oq terak (Bolleana formasi), Koliforniya teragi,, qora terak (Piramidalniy obnovlenniy), afg'on teragi (mirza teragining turi).

II. Terakdan ishga yaroqli texnik yog'och olish uchun-oq terak (Baxofena formasi), pervenes Uzbekistana, qora terak, afg'on teragi (O'rta Osiyo mirza teragi), I-214 yevroamerika teragi, Koliforniya teragi, I-154 yevroamerika teragi, I-455 yevroamerika teragi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A.O.Do'saxmetov, Ya.X.Yuldashev. O'zbekistonda terakning istiqbolli turlari va ularni yetishtirishning ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent-2001.
2. Maxmudov Yu.A., Turdiboeva R.E. Respublikada o'rmonchilik sohasini rivojlantirishda «O'rmon to'g'risida» gi qonunning o'rni. Ma'ruza matni. Toshkent, 2001 y., 3-11-bet.
3. Usmanov A.U. Dendrologiya. Toshkent, 1974 y.
4. Usmanov K.A., Qalandarov M.M. O'rmonchilikka doir ruscha-o'zbekcha lug'at. Toshkent, 1999 y.
5. Xonazarov A.A. O'zbekistonda o'rmonzorlar barpo qilish asoslari. Toshkent 2002 y. 87-93 bet
6. Xonazarov A.A. O'rmonchilar uchun qo'llanma. Toshkent-«Mehnat»-1992